

SHERIKCHILIK ASOSIDA IQTISODIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI

Berdiyarov Ilhom Hayrullayevich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tadqiqotchisi

ilhoberdiyarov@gmail.com

i.berdiyarov@iiu.uz

Annotasiya: Ushbu maqolada sherikchilik munosabatlarining islom iqtisodiyotidagi xususiyatlari bayon qilingan. Uning turlari izohlangan, amalga oshirish tartiblari misollar orqali tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar: sherikchilik, mushoraka, kamayib boruvchi sherikchilik, mulk shirkati, shartnoma shirkati.

Sherikchilik atamasi (Mushoraka) arab tilidagi "shaaraka" so'zidan olingan. Amaliyotda mushoraka ikki yoki undan ortiq tomon o'rtasidagi foyda va zararni bo'lishish asosidagi faoliyatni ifodalaydi. Bu shartnomaga ko'ra, ishtirok etuvchi har bir tomon muayyan miqdorda mablag'ni kiritadi, bu kiritilgan mablag' o'sha ishtirokchiga sheriklikdagi kapitalni tasarruf etish huquqini beradi. Shirkat faoliyati natijasida olingan foyda sheriklar o'rtasida shartnomada oldindan belgilangan nisbatda taqsimlanadi, ko'rilgan zarar esa har bir sherikning mushoraka kapitaliga qo'shgan ulushiga mos nisbatda taqsimlanadi. Foydani taqsimlash nisbati bilan zararni taqsimlash nisbati bir-biridan farq qilishi mumkin.

Bugungi kunda kamayib boruvchi mushoraka (mushoraka mutanoqisa) ham islom moliya muassasalari tomonidan keng qo'llaniladi. Mushorakaning bu shaklida ikkita sherik bir mulkni sotib oladi. Odatda bu holat islom banki va mijoz o'rtasida amalga oshadi. Islom banki moliyaviy imkoniyati keng bo'lganligi uchun mulkning katta qismini (misol uchun 90%ini) va mijoz esa qolgan qismi (10%ini) sotib olib egalik qilishadi. Mijoz davriy ravishda bankning ulushini sotib oladi, bu holat toki mijoz bankning barcha ulushini sotib olib, egalikni to'liq o'ziga olgunicha davom etadi. Bunda mushoraka shartnomasi va oldi-sotdi shartnomasi alohida tuziladi.

Mushorakaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) *Mushoraka shartnomasining tomonlari:* Mushorakada sherikchilik ikki va undan ortiq tomonlar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin.

2) *Mushoraka kapitali:* Mushoraka kapitaliga barcha ishtirokchilar o'z ulushlarini qo'shishlari lozim. Kapital pul shaklida yoki moddiy aktivlar shaklida bo'lishi mumkin. Sheriklik mablag'ini kiritish bir martalik pul to'lash orqali yoki davriy ravishda bo'lib-bo'lib, hatto turli valyutalarda to'lanishi ham mumkin bo'ladi. Qarz mablag'larni sherikchilikka kiritishga ruxsat etilmaydi.

3) *Mushoraka faoliyatini boshqarish*: Mushorakada barcha ishtirokchilar faoliyatni boshqarishda teng huquqga ega bo'lishadi. Ammo, amaliyotda boshqaruv faoliyati bir nechta yoki yagona ishtirokchiga berilishi mumkin. Boshqaruv faoliyatini amalga oshiradigan sherik(lar) bilan menedjerlik faoliyatini yuritish bo'yicha alohida shartnoma tuziladi. Shuningdek, ishtirokchilardan boshqa, boshqaruv faoliyati bo'yicha tajriba va malakaga ega bo'lgan begona shaxsga ham boshqaruv yuklatilishi mumkin. U shaxs bilan ijara-mehnat shartnomasi asosida munosabatlar yo'lga qo'yiladi.

4) *Mushoraka faoliyatida kafolat*: Barcha sheriklar kapitalni o'zaro ishonch tamoyili asosida yuritishlari lozim. Shuning uchun odatda sheriklarning hech biri o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlar uchun mas'ul bo'lmaydi. Ammo sheriklardan birortasi mushoraka faoliyati davomida o'zining majburiyatlarini yetarli darajada bajarmasa, ishga mas'uliyatsizlik bilan yondashsa, shartnoma shartlarini buzsa, bu holatlar natijasida kelib chiqadigan zararlar uchun mas'ul bo'ladi. Shuningdek, uchinchi taraflarni sheriklarning kapitalini saqlab turilishi bo'yicha kafillikka jalb etish mumkin.

5) *Foydani taqsimlash*: Mushoraka natijasida olinadigan foydaning taqsimoti sheriklar o'rtasida shartnoma tuzish jarayonida kelishib olinishi zarur. Sheriklarning foydadan oladigan ulushi ularning umumiy kapitalga qo'shgan ulushidan farqli bo'lishi mumkin. Foydadan taqsimlanadigan ulush mutloq miqdordagi mablag' yoki kapitalning muayyan foizi shaklida bo'lmaydi. Foydani hisoblashda sheriklar doimiy yoki o'zgarib turuvchi usulni qo'llashlari mumkin, misol uchun, birinchi davra hisob-kitoblaridan keyin foydani taqsimlash ulushlari bir turda, ikkinchi davra hisob-kitoblaridan keyin boshqa turda bo'lishi mumkin. Yoki foyda miqdori muayyan darajadan oshsa, oshgan qismi sheriklardan biriga tegishli bo'lishi haqida ham kelishib olish mumkin.

6) *Zararni taqsimlash*: Mushoraka jarayonida ko'rilgan zararining ishtirokchilarga taqsimoti ularning kapitalga qo'shgan ulushlariga to'liq mos bo'lishi shart.

7) *Mushorakani yakunlash*: Ishtirokchilarning har biri oldindan ogohlantirgan holda mushorakani yakunlash huquqiga ega. Buning aksi, ya'ni sheriklar ma'lum muddat davomida mushorakani davom ettirish bo'yicha majburiy va'dalashuvga kelishishlari ham mumkin. Mushorakaning muddati tugaganda mavjud aktivlar qat'iy belgilangan nisbatda sheriklar o'rtasida taqsimlanadi. Agar buning iloji bo'lmasa, sheriklardan biri barcha aktivlarni bozor qiymatida sotib olishi mumkin. Sheriklarning o'zaro kelishuvi asosida mushoraka muddatdan oldin ham ixtiyoriy ravishda tugatilishi mumkin. Bundan tashqari, sheriklardan birining vafot etishi yoki mushorakada ishtirok etishga layoqatsiz holga kelishi sababli o'sha sherikning mushorakadagi faoliyati yakunlanadi.

8) *Kamayib boruvchi mushoraka*: Mushorakaga tegishli barcha umumiy qoidalar kamayib boruvchi mushorakaga ham tatbiq etiladi. Bunda sheriklardan biri ikkinchisining ulushini davriy ravishda to'lovni amalga oshirib sotib oladi.

Mushorakaning turlari. Islom iqtisodiyoti va moliyasiga tegishli adabiyotlarda mushorakaga turlicha yondashish nuqtai-nazaridan bir qancha turlari keltirilgan. Lekin, kelib chiqish jihatdan sherikchilikning ikkita asosiy turi mavjud. Qolgan turlar ham shu ikkita asosdan kelib chiqadi.

1) *Shirkatul-milk*: muayyan mol-mulkka egalik qilishda sherik bo'lishni ifodalaydi. Shirkatul-milkning ham ikkita tarkibiy qismi mavjud, bular:

-shirkatul-ixtiyor: ixtiyoriy qo'shma egalik, bunda ikki yoki undan ortiq kishi biror mulkni ixtiyoriy ravishda sotib olishadi va tasarruf qilishadi. Misol uchun biror ko'chmas mulk yoki asbob-uskunani sotib olib ijaraga berishlari mumkin. Shuningdek, ikki yoki undan ortiq kishiga biror mulkning hadya qilinishi yoki vasiyat qilinishi tufayli ham sheriklarning o'sha mulkka egaligi paydo bo'ladi.

-shirkatul-jabr: majburiy qo'shma egalik, bunda meros tufayli mulkka egalik paydo bo'ladi.

Shirkatul-milkning o'ziga xos jihati shundaki, unda sheriklar biri-biriga begona shaxslardek bo'ladi, ya'ni sheriklardan biri boshqasining ruxsatisiz uning mulkini tasarruf qila olmaydi.

2) *Shirkatul-aqd*: shartnoma asosida sherikchilik qilishni ifodalaydi. Sherikchilikning bu turi o'z navbatida uchta katta qismga bo'linadi, bular:

- shirkatul-amval: mol-mulk, kapital-sarmoya kiritish orqali sherikchilik qilish turi. Mavzu doirasida o'rganilayotgan mushoraka shartnomasining asosiy xususiyatlari sherikchilikning shu turiga xos hisoblanadi. Shirkatul-amval ham o'z navbatida ikkita qismga bo'linadi: birinchisi, shirkatul-mufovada, ya'ni kiritilayotgan sarmoyada teng ulushga ega bo'lish orqali sherikchilik qilish turi. Misol uchun, umumiy kapitalda, agar sheriklar ikki kishi bo'lsa, ulushlari 50%dan, to'rt kishi bo'lsa, ulushlari 25%dan va hokazo bo'ladi. Ikkinchisi, shirkatul-inan, ya'ni umumiy tartibdagi sherikchilik turi. Bunda sheriklarning umumiy sarmoyadagi ulushiga qo'yilgan biror cheklov yoki me'yori mavjud emas. Aksariyat mushoraka shartnomalari shirkatul-inan sherikchiligi asosida yuritiladi.

- shirkatul-a'mal¹: mehnat qilish, xizmat ko'rsatish asosida sherikchilikni tashkil etish shakli hisoblanadi. Bunda ikki yoki undan ortiq tomonlar biror ishni bajarib berish yoki xizmat ko'rsatishni amal oshirish bo'yicha sheriklikka kirishadi.

- shirkatul-vujuh: kishilar o'zlarining obro'-e'tiboridan foydalanib nasiyaga mulk sotib olib, uni naqdga sotish orqali amalga oshiriladigan sherikchilik turi. Bu holat aholi orasida yaxshi obro'ga ega bo'lgan, kishilarning ishonchini qozongan

¹ Ba'zi adabiyotlarda shirkatul-abdan atamasi ham ishlatiladi

insonlar tomonidan ko'proq amalga oshiriladi. Shuningdek, yuridik shaxslar nuqtai nazaridan, oldingi tranzaksiyalarida yaxshi kredit tarixini shakllantira olgan kompaniyalar ishtirokida ham bu turdagi sherikchilik amalga oshirilishi mumkin. Kompaniyaning obro'si va brendining mashhurligi ham sherik tanlashda va nasiyaga aktivlarni sotib olishda muhim hisoblanadi.

Mushorakani amalga oshirish mexanizmi. Iqtisodiyotda mushoraka faoliyati yuridik shaxslar orasida ko'proq qo'shma korxonalar, hissadorlik jamiyati, aksiyadorlik kompaniyalari kabi shakllarda amalga oshiriladi. Moliyaviy imkoniyatlari kengligi jihatidan islom banklari ham bu jarayonda ishtirok etadi. Quyida islom banki va uning sherigi bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs misolida mushoraka faoliyatini amalga oshirish mexanizmi keltirilgan:

- islom banki va hamkorlik qilmoqchi bo'lgan tomon o'rtasida muayyan biznes loyihani mushoraka bitimi asosida amalga oshirish bo'yicha kelishuv tuziladi;

- ikkala tomon mushoraka bo'yicha kapitalga o'z ulushlarini qo'shadi, misol uchun bank 80% kapitalni, tadbirkor 20% kapitalni kiritadi;

- tomonlar o'rtasida foydani taqsimlash nisbati, misol uchun 60:40 nisbatda, kelishib olinadi, bunda mushoraka faoliyati natijasida olinadigan foydaning 60%i bankka, 40%i tadbirkorga ajratiladi;

- agar faoliyat natijasida zararga kiriladigan bo'lsa, zararning 80%i bankning va 20%i tadbirkorning zimmasiga tushadi;

- kamayib boruvchi mushorakada, sheriklardan biri, odatda bank bilan hamkorlik qilayotgan mijoz, bankning umumiy mulkdagi ulushini davriy ravishda to'lovni amalga oshirib sotib olish boshlaydi, shu tarzda barcha to'lovlarni amalga oshirib bo'lgandan so'ng mijoz mulkning to'liq egasiga aylanadi.

Mushoraka shartnomasidan ko'plab ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatlarni amalga oshirishda foydalanish mumkin. Banklar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan sohalar quyidagilar: - uy-joy sotib olishni moliyalashtirish; - loyihalarni moliyalashtirish; - savdoni moliyalashtirish-mushoraka asosida akkreditiv (Letter of Credit) chiqarish orqali; - ulushlar va aksiyalar bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalar; - islom moliya jamg'armalari faoliyati; - mushoraka asosida sukuk chiqarish.

Adabiyotlar:

1. Abdullaev R.V. Islom iqtisodiyotida savdo va tadbirkorlik. "Effect-D" nashriyoti, 2022. – 232 b.
2. Handbook of Islamic Banking. Edited by M. Kabir Hassan, Mervyn K. Lewis, 2007, Edward Elgar Publishing Limited. UK
3. Islamic Banking and Finance: Principles & Practices. 2014 by Marifa Academy. P. 97-100. <http://www.marifaacademy.com/>
4. Islamic Financial Services Board. 2022. Islamic Financial Services Industry Stability Report. Kuala Lumpur, Malaysia, June.

5. Mufti Muhammad Taqi Usmani. An Introduction to Islamic Finance. Karachi. 1998.
6. Bekkin R.I. Islom iqtisodiy modeli va zamon [Matn]. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – 360 b..
7. Baydalet Ye.A. Islomiy moliya asoslari. "O'zbekiston" NMIU, Toshkent. 2019. B. 50-55.